



---

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TOLERANTLIK  
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11204498>

**Gafurova Nodira Ravshanovna**

*Farg'ona davlat universiteti,*

*Chet tillar fakulteti dotsenti,*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, metodlari va vositalari o'rganilib chiqilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik ko'nikmalarini shakllantirishning metodik xususiyatlari, va tamoyillari tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar**

tolerantlik, ta'lim, tarbiya, tolerantlik tarbiyasi, metodika, millat, irq, millatlararo muloqot, o'zga dinlar, o'quvchi, boshlang'ich sinf o'quvchilari, tolerantlik ko'nikmasi.

**ABSTRACT**

In this article, the main directions, methods and means of developing the tolerance skills of elementary school students are studied. The methodical features and principles of forming tolerance skills in elementary school students have been researched.

**Key words**

tolerance, education, education, education of tolerance, methodology, nation, race, inter-ethnic communication, other religions, student, elementary school students, tolerance skills.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье изучаются основные направления, методы и средства развития навыков толерантности у учащихся младших классов. Исследованы методические особенности и принципы формирования навыков толерантности у учащихся младших классов.

**Ключевые слова**

толерантность, воспитание, воспитание, воспитание толерантности, методика, нация, раса, межнациональное общение, другие религии, учащийся, учащиеся начальной школы, навыки толерантности.



O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida o'quvchilarda tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash orqali mamlakatni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining beshinchi bandiga asosan xavfsizlik va millatlararo totuvlikni ta'minlash va boshqa milliy va etnik nizolarni oldini olish mumkin. Chunki kichik yoshdagi bolalarda tolerant tafakkurni shakllantirish, bag'rikenglik ko'nikmalarini tarkib toptirish orqali butun jamiyatni tarbiyalash, ularni toqatli va chidamli qilish mumkin bo'ladi. Buning uchun aniq ishlab chiqilgan reja va bu asosida tizimli pedagogik jarayonni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, «dunyoda, yon-atrofimizda qanday keskin raqobat, g'oyaviy, mafkuraviy kurash ketmoqda! Shunday murakkab bir vaziyatda haqiqiy ziyolining qo'l-qovushtirib, tomoshabin bo'lib o'tirishga haqqi bormi? Takror aytaman, el-yurt taqdiriga loqaydlik-bu sotqinlikdan ham yomon. Bunday salbiy illatlarga ayniqsa muqaddas ta'lim dargohlarida mutlaqo o'rin bo'lmasligi kerak».

O'zbekistonda amalga oshirilgan millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ta'minlash sohasidagi keng qamrovli o'zgarishlar natijasi o'laroq, AQSh Davlat departamenti tomonidan O'zbekiston diniy sohadagi "alohida tashvishli mamlakatlar" ro'yxatidan so'nggi 20 yil ichida chiqarilgan ikkinchi davlat bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72 sessiyasidagi nutqida «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» nomdagi maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish zaruratini asoslab, jumladan shunday dedi: «Ushbu rezolyutsiya, bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishiga qaratilgan».

Boshlang'ich ta'lim o'quvchi individualligini, o'ziga xos xarakterini, axloqiy sifatlarini tartibga soluvchi, ularni amaliy ahamiyatini ko'rsatib beruvchi asosiy bo'g'in sanaladi. Bolaning xarakteri, undagi tolerant munosabatlarning namoyon bo'lishi boshlang'ich ta'limdan boshlanadi. Oiladagi tolerant muhit, ota-ona tomonidan berilgan tarbiyaning amaliy natijasi ta'lim dargohida sinovdan o'tadi va shu yerda sayqallanib, to'ldirilib boradi. Shuning uchun ham kichik maktab yoshidagi bolalarda ko'plab fundamental ko'nikmalarni kurtak yozishi uchun imkoniyat va sharoitni yaratish, ularda yuksak axloqiy fazilatlarni ham rivojlanishiga asos bo'ladi. Buning uchun, «o'qituvchilarning o'z fanini bilishi, pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligidan kelib chiqib, toifa berish mezonlari ham qayta ko'rib chiqiladi. Yana bir bor takrorlayman, jamiyatda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'lishi lozim. Muallimlarimiz bolalarga sifatli ta'lim berish va o'z ustida ishlashdan boshqa narsa haqida o'ylamasligi uchun davlat barcha sharoitlarni yaratib berishi zarur».



Aslida, boshlang'ich ta'limdagi o'quv-tarbiyaviy jarayonning muvaffaqiyati liberal ijtimoiy muhit bilan bog'liq. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarni qabul qilish qobiliyati va idrokining o'tkirligi bilan farqlanadi. O'quvchilar kundan-kunga yangi bir jihatlari bilan namoyon bo'luvchi dunyoni alohida bir qiziqish bilan anglashga urinadilar. Ularning fikrlashi obrazli fikrlashga asoslanib, bu holat boshlang'ich sinf o'quvchilari fikrlashining asosiy turidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik ko'nikmalrini rivojlantirish orqali ularda kattalarga hurmatva ehtiromda, kichiklarda izatda bo'lish, ochiqko'ngil, samimiy, mehribon va rostgo'y bo'lish fazilatlarini ham rivojlantirish mumkin. Albatta, tolerantlik, ma'naviy axloqiy sifat bo'lib, u aniq maqsadga yo'g'rilgan, samarali va izchil tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantiriladi. Kichik maktab o'quvchilariga oiladan boshlab butun uzluksiz ta'limning mazmuniga singdirilishi lozim bo'lgan tolerantlik xislatlaridan biri rahm-shavqat masalasi hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ta'lim muassasasida tolerantlikni shakllantirishning dastlabki sharti tolerant muhitni yaratish hisoblanadi. Tolerant muhitni yaratish uchun maktab ta'limi ota-onalar, mahalla instituti va jamiyat faollari bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yishi kerak bo'ladi. Biroq bu jarayon uzoq muddatni va sabr-toqatni talab etadi. Sabr-toqatsiz pedagog yoki rahbar tolerantlikni tarbiyalashga qodir emas. Pedagogni aksariyat hollarda «ta'lim jarayonining yuragi» deb ataydilar, chunki pedagog tolerantlik pedagogikasi g'ayalarini boshqaruvchi sifatida singdirsa, shu bilan birga mazkur g'oyalarni bolalar jamoasida rivojlanishiga yordam beradi.

Bu o'rinda Yangi Zelandiya pedagoglari o'z vazifalarini bajarishda tayanadigan me'zonlarni sanab o'tish diqqatga sazovordir:

- pedagog uni taqlid qilish uchun namuna sifatida qabul qilishlarini tan olishi kerak;
- ziddiyatlarni tinch hal etish va muloqotga kirisha olish malakasiga ega bo'lishi va uni amalga orshirishi kerak;
- muammolarni hal etishga ijodiy yondoshuvni rag'batlantirishi kerak;
- tajovuzkor hulqni va keskin raqobatni qo'llab-quvvatlamaslik;
- birgalikdagi faoliyat dasturlarini tuzishda ota-onalar va o'quvchilar hamkorligini tashkil qilish;
- o'quv dasturlarini amalga oshirishda barcha imkoniyatlarni ishga solish, jamoat-chilik fikri va ehtiyojiga nisbatan hushyor bo'lish;

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida boshlang'ich sinf o'quvchilarida, umuman o'quvchilarda intolnrantlik ko'nikmalari mavjudligini tashxislash va uni profilaktika qilish tizimini ham yaratish dolzarb vazifalardan biridir. Maktab ta'limi o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga ulardagi



salbiy illatlarni shakllanishini ham nazoratga olishi, ulardagi salbiy sifatlarni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, sabablarni o'quvchilar bilan yaqin muloqotni yo'lga qo'yish orqali aniqlash va ularni bartaraf etishda amaliy yordam berish lozim.

O'quvchilarda tolerantlik tafakkuri va ko'nikmalrini shakllantirish o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi va qamrab oladi:

-o'quvchilar orasidagi munosabat va tabiatga munosabatni zo'ravonliklardan xoli bo'lishi

-o'quvchilarni inson huquqlarini qadrlanishiga, ziddiyatlarsiz munosabat, muloqotga kirishish va hamkorlikka o'rganish, o'quvchi-yoshlar uchun tanlash imkoniyatini beruvchi muqobilliklarning mavjudligi, ota-onalar tomonidan ta'lim va tarbiya muammolariga nisbatan faol tolerant munosabat orqali, maktabda ijobiy muxitni tarkib topishi.

Tadqiqotchi olim B.E.Rierdon tolerantlik ta'limini rejalashtirish jarayonida o'ziga xos metodik yo'riq bo'lib hisoblanuvchi yettita yo'nalishini tasniflaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash va faol hayot tarzini tarbiyalash quyidagilarga asoslanadi:

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z ehtiyojlarini xis qila olish, ularni boshqalarga zarar yetkazmasdan qondirish malakasini rivojlantirishga undash;

- o'z imkoniyatlarini baholay olishga tayyorlash;

- o'z imkoniyatlari doirasida xarakat qilish va ularni rivojlantirishga intilish malakasini rivojlantirish;

- o'z yutuq va kamchiliklarini tan olish;

- tanqidiy yondoshishning dastlabki ko'rinishlarini namoyon qilishga undash;

- boshqa o'quvchilarning fikrlashi, harakatlari va odatlarini hurmat qilish va ularga nisbatan bardoshli bo'lish;

- boshqa o'quvchilar bilan birgalikda jamiyatdagi ma'lum qoida va me'yorlarni o'rganish.

Bolalar maktabga qatnay boshlashi bilan yangi, notanish sharoitlarga tushishi, bilimlarning yetishmasligi, takroriy muvaffaqiyatsizlik holatlari o'zlariga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda o'quvchilarning birgalikda o'qib-o'rganishi, o'ynashi, fikr almashishi va muhitga moslashishi bilan yo'qolib boradi. O'ziga ishonch, fikrda sobitlik xususiyatlari 3-sinf dan boshlab mustahkamlanadi va bu o'zgarishlar ularni muvaffaqiyatga yetaklaydi. O'ziga ishonch va sobit fikrlik hususiyatlari o'quvchilarda tolerantlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Kichik yoshdagi o'quvchilarining irodaviy sifatlari rivojlanishida ularning sevgilari katta rol o'ynaydi. Bu bosqichda iroda va sevgilarning rivojlanishi doimiy birlikda amalga oshadi. Ayrim hollarda sevgilar irodani shakllanishiga xizmat qilsa, boshqa bir o'rinlarda uni to'xtatadi.



Maktabda kichik yoshdagi o'quvchilar axloqiy tarbiyasiga asos solinadi, ular ta'lim-tarbiya jarayonida axloq normalarini, qoidalarini o'rganadilar. Bu jarayonning muvaffaqiyati ko'pincha maxsus uyushtirilgan tarbiyaviy jarayonda amalga oshadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda jismoniy rivojlanish boshqa yoshga nisbatan bir tekisda kechadi. Tolerantlik o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik munosabatlarning yangi asosini tashkil qiladi. Tolerantlikning mohiyatida o'quvchi shaxsi uchun optimal sharoitlarni yaratish, ularda o'z imkoniyatlarini namoyon etish, muhokama, munozarali jarayonlarda javobning noto'g'riligidan qo'rqish hissin yo'qotish kabi shaxsga yo'naltirilgan bag'rikenglik yotadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'limda tolerantlikni avtoritar uslubdagi dars jarayonida va munosabatlarda shakllantirib bo'lmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik ko'nikmalarini pedagogik jarayonni demokratik sharoitda tashkil etish va o'qituvchi va o'quvchi munosabatida liberal muhitni qaror toptirish orqali rivojlantiriladi. Tolerantlik madaniyatini tarbiyalashni quyidagi formulada ko'rsatish mumkin: «ota-onalar + bolalar + o'qituvchi». Bunda maktab va oila o'quvchilar bilimini to'ldiruvchi va olgan bilimlarini amaliyotda ko'rsatib berishni talab etuvchi muhitga aylanishi lozim.

Xulosa qilganda, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida tolerantlik ko'nikmalarini shakllantirishda ta'lim tizimining mavjud holati, o'qitish tamoyillari isloh qilishni talab etmoqda. Yangi rivojlanish bosqichida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish jarayonida o'quvchilarda toqatlilik, chidamlilik va bag'rikenglik fazilatlarini shakllantirish muhim vazifalardan ekanligi kelib chiqmoqda. Shuningdek, oila muhitida ham oliyanoblik va bag'rikenglik sifatlarining shakllanishi bolani maktab ta'limida tolerantliklari namoyon qilishiga asos bo'ladi. Ota-onalar nafaqat tolerantlik quruvchisi, balki farzandlar tolerantligining ham quruvchisi hamda butun oiladagi tolerant muhit quruvchisi hisoblanadi. Ota-ona va pedagoglar haqiqiy tolerant bo'la olgandagina, oilada, ta'lim muhitida tolerant muhit yaratiladi, bolada esa tolerantlik axloq tarbiyalanadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ravshanovna, G. N. (2022). THE STUDY OF THE MEANING OF THE WORD TOLERANCE IN OTHER LANGUAGES. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 8-9).
2. Ravshanovna, G. N., & Ahmadjanovna, E. T. U. (2021). Methodological characteristics of formation of tolerance skill pupils in primary school. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1623-1628.



3. Ravshanovna, G. N. (2021). Methods of development tolerance skills pupils in primary school. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1221-1224.
4. Ravshanovna, G. N. (2022). TOLERANCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS PEDAGOGICAL MODEL OF SKILLS DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 95-96.
5. Ravshanovna, G. N. (2020). The Main Directions Of Developing Tolerance Skills Of Primary School Pupils. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2020.
6. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG 'ICH TA'LIM JARAYONIDA TOLERANTLIKNI TARBIYALASH USULLARI VA VOSITALARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 975-980.
7. Ravshanovna, G. N. (2019). TRAINING THE PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO INNOVATION ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION SYSTEM. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
8. Ravshanovna, G. N., & Anvarovna, Y. D. (2022). INGLIZ VA OZBEK TILLARIDAGI TURIZMDAGI ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 14-17)*.
9. Teacher, G. N. R. E. THE IMPORTANCE USAGE OF EXTENSIVE READING Gafurova NR (Republic of Uzbekistan) Email: Gafurova339@scientifictext.ru. *UIF-2022*, 8.
10. Qizi, O. S. S., & Ravshanovna, G. N. (2022). The scope of neologisms in science fiction. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 1149-1151.
11. Гафурова, H. P. (2019). Use of modern technologies in the foreign language lessons in primary education. *Молодой ученый*, (15), 256-258.
12. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA KO 'P MADANIYATLI TA'LIMNING MOHIYATI, MAZMUNI VA BAG 'RIKENGLIK SHAKLLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(19), 967-971.